



KICHIK VA O'RTA BIZNES UCHUN MOLIYAVIY QO'LLAB QUVVATLASH MEXANIZMLARI

FINANCIAL SUPPORT MECHANISMS FOR SMALL AND MEDIUM BUSINESSES

¹Abduraxmonov Abdulaziz
Abdug'ani o'g'li

¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi talabasi,
E-mail: abdurahmonovabdulaziz19@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb - Ushbu maqola kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qiladi. Maqola dolzarbligi shundan iboratki, kichik va o'rta bizneslar iqtisodiyotning asosi bo'lib, ularning rivojlanishi uchun samarali moliyaviy mexanizmlar zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreditlar, grantlar, investitsiyalar va mikro-moliya xizmatlari kichik bizneslar uchun eng muhim moliyaviy vositalardir. Xulosa qilib aytganda, bizneslarni rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish va yangilarini joriy etish iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi mumkin.

Eng - This article analyzes the mechanisms of financial support for small and medium-sized businesses. The relevance of the article lies in the fact that small and medium-sized businesses are the foundation of the economy, and effective financial mechanisms are necessary for their development. The research results showed that loans, grants, investments, and microfinance services are the most important financial instruments for small businesses. In conclusion, improving financial mechanisms and implementing new ones in business development can accelerate economic growth.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ Kichik biznes, o'rta biznes, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlar, grantlar, investitsiyalar, mikro-moliya, aksiyalar, moliyaviy mexanizmlar, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), moliyaviy vositalar.

❖ Small business, medium business, financial support, loans, grants, investments, microfinance, stocks, financial mechanisms, financial technologies (FinTech), financial instruments.

Kirish.

Kichik va o'rta biznes iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan bir qator farmonlar va qarorlar qabul qilingan. Ushbu farmonlar va qarorlarda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada samarali joriy etish aks ettirilgan. Qolaversa, bunday ijtimoiy qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2017-2021 yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida (PF-4947, 2017), shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida (PF-60, 2022) ham o'z aksini topgan [1].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan bir qator farmonlari va qarorlari O'zbekiston iqtisodiyotida katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, kichik biznesni qo'llab-

quvvatlash uchun davlat tomonidan turli moliyaviy mexanizmlar joriy etilgan. Bu mexanizmlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror (2023-yil). Ushbu qaror kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi mexanizmlarni yaratish, shuningdek, mikro, kichik va o'rta bizneslarni iqtisodiy barqarorlikka olib kelish uchun imtiyozli kreditlar va grantlar ajratilishini nazarda tutadi. Qarorda bizneslarni rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar taqdim etilishi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kuchaytirilishi ko'zda tutilgan.

2. "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror (2021-yil). Prezident tomonidan yosh tadbirkorlarni rivojlantirish maqsadida joriy etilgan ushbu farmon kichik va o'rta biznesga moliyaviy resurslarni taqdim etishning yangi yo'llarini yaratishni maqsad qilgan. Qarorda yosh tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va soliq yengilliklari taklif etilgan.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan farmonlar va qarorlar kichik va o'rta biznesning moliyaviy ta'minotini yaxshilash, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan. Asosiy moliyaviy mexanizmlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Imtiyozli kreditlar: Kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirish uchun tijorat banklari orqali imtiyozli kreditlar ajratilishi, shuningdek, kichik bizneslar uchun kredit stavkalarini kamaytirish.

- Grantlar va subvensiyalar: Yangi boshlovchi tadbirkorlarga va kichik bizneslarga grantlar va davlat subsidiyalarini ajratish.

- Kredit kafolatlari: Kichik bizneslarning kredit olishda duch keladigan qiyinchiliklarni

yengillashtirish uchun davlat kafolatlarini taqdim etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 2-ilova "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 9-noyabrdagi PF-244-son Farmoniga muvofiq tadbirkorlarning zamonaviy faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan talablar qayta ko'rib chiqilib, bir qator yengilliklar joriy qilingan [2,3].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyotning milliy raqobatdoshligi evolyutsiyasining globallashtirishga oid E.V.Drobotning, pandemiya sharoitida xorijiy davlatlar, shu jumladan, Rossiya iqtisodiyoti real sektorining raqobatdoshligi borasida T.A.Malishevning, xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes borasida V.V.Pechatkin va L.M.Vildanovalarning ilmiy ishlarida raqobatdoshlik va raqamlashtirish o'zaro bog'liqligi, innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish hamda barqaror daromadga erishish bilan bog'laydilar [4,5].

Rossiya fanlar akademiyasi professori R.V.Meshryakov fikricha "Kichik va o'rta biznes hamda raqamli iqtisodiyot" tushunchasiga ikki xil yondashuv mavjud: birinchisi klassik yondashuvda – kichik va o'rta biznes hamda raqamli iqtisodiyot texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir, shu bilan birga bu elektron tijorat (tovarlar, xizmatlar) yo'nalishi bilan ham tasniflanadi. Ikkinchisi keng yondashuvda kichik va o'rta biznes hamda raqamli iqtisodiyotni raqamli

texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish sifatida qaraladi [6, 7].

Tadbirkorlik faoliyati barqaror rivojlanishining innovatsion jihatlari jahonda ko'plab munozara mavzusiga aylandi. Mavjud tajriba shuni ko'rsatadiki, ilg'or mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish afzalliklarini ro'yobga chiqarish bosqichida turibdi, rivojlangan innovatsion tuzilmaga ega samarali ta'lim tizimi va innovatsion faoliyatni huquqiy jihatdan ta'minlagan. Global innovatsiyalar indeksida rivojlangan mamlakatlar yetakchilik qilishi bejiz emas. Ushbu reytingda O'zbekiston 2022-yilda o'z mavqeyini yaxshiladi va Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida 3-o'rinni egalladi, dunyo bo'yicha 82-o'rin va Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi [5].

Biz xorijiy [8, 9, 10] va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ishlarni tahlil qilish

orqali quyidagi fikrga to'xtaldik, innovatsiyalarni joriy qilish va rivojlantirish istiqbollari birinchi navbatda sanoat sohasida tarkibiy, texnik, texnologik va mahsulot sifat o'zgarishlarini, shuningdek, xalqaro hamkorlik jarayonlarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik harakatlarini birlashtirishdan iborat bo'lishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur mavzuni yoritishda tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining tahlilini qilishda biz quyidagi jadvalda asosiy yo'nalishlarini yoritdik:

1-jadval

Kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining asosiy yo'nalishlari

1.	Kreditlar va kafolat mexanizmlari	Kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi, shuningdek, davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar taqdim etilishi ko'plab kichik bizneslarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. O'zbekiston hukumati kichik bizneslarni kredit olishda yuzaga keladigan risklarni kamaytirish uchun kredit kafolatlari tizimini joriy qilgan. Bu mexanizmlar yangi boshlovchi tadbirkorlarga o'z bizneslarini rivojlantirishda yordam beradi.
2.	Grantlar va subsidiyalar	Kichik bizneslar uchun grantlar va davlat subsidiyalarining joriy etilishi ularning barqarorligini oshiradi. O'zbekiston hukumati yangi tadbirkorlar uchun grantlar ajratib, ularga o'z loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratmoqda. Buning natijasida kichik bizneslar o'z faoliyatlarini kengaytirish va iqtisodiy faoliyatini jonlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
3.	Mikro-moliya	Mikro-moliya tashkilotlari kichik bizneslar uchun katta ahamiyatga ega, chunki ular kichik va o'rta bizneslarga qisqa muddatli kreditlar, zarur moliyaviy yordamni taqdim etadi. Bunday tashkilotlar, odatda, kichik kompaniyalarga o'z bizneslarini boshlash va rivojlantirish uchun kerakli mablag'larni oson va tez olish imkonini yaratadi.
4.	Investitsiyalar va venture kapital (riskli kapital)	O'zbekiston hukumati kichik bizneslarni rivojlantirish uchun investorlarni jalb qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Venture capital va boshqa investitsiya mexanizmlari kichik bizneslar uchun kapital olishning muhim manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali kichik bizneslar innovatsion loyihalarni amalga oshirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
5.	Soliq yengilliklari va biznesni ro'yxatdan o'tkazish	Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda soliq siyosati katta rol o'ynaydi. O'zbekiston hukumati kichik biznes uchun soliq yengilliklarini joriy etgan va biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirgan. Bu jarayonlar kichik tadbirkorlarga tez va qulay sharoitda o'z faoliyatlarini boshlash imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash

mexanizmlarining samarali joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga olib kelmoqda:

1. Kichik bizneslar sonining oshishi: Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali kichik bizneslar soni ortib, yangi ish o'rinlari yaratildi. Imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar yangi tadbirkorlarga o'z bizneslarini boshlash imkonini beradi.

2. Iqtisodiy o'sishning rag'batlantirilishi: Kichik va o'rta bizneslar iqtisodiyotning samarali va dinamik o'sishiga turtki beradi. Moliyaviy mexanizmlar yordamida kichik bizneslarning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha qiymat yaratadi.

3. Investitsiya oqimining oshishi: Venture capital va boshqa investitsiya mexanizmlari orqali kichik bizneslarga sarmoya jalb qilinmoqda. Bu, o'z navbatida, innovatsion startaplar va loyihalarni rivojlantirishga olib keladi.

4. Kichik bizneslar uchun barqarorlik: Grantlar va kreditlar orqali kichik bizneslar o'z faoliyatlarini barqarorlashtirishi mumkin. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy xavflarni kamaytiradi va kompaniyalarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

5. Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash: Yosh tadbirkorlar uchun ajratilgan moliyaviy resurslar va grantlar yangi avlod tadbirkorlarining faoliyatini rag'batlantiradi. Bu yoshlarning iqtisodiy taraqqiyotga qo'shgan hissasini oshiradi.

Xulosa va takliflar.

Dunyo bo'ylab ko'plab davlatlar turli moliyaviy mexanizmlarni joriy etgan. Bular orasida, davlat va xususiy sektor tomonidan taqdim etiladigan kreditlar, imtiyozli soliqlar, grantlar, qo'llab-quvvatlash fondlari, biznes inkubatorlari va akseleratorlar mavjud. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar, masalan, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va BMTning turli tomonlama iqtisodiy tashkilotlari orqali ham kichik va o'rta bizneslar uchun moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Innovatsiyalarni rag'batlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va biznesni global

bozorga chiqarish uchun zamonaviy moliyaviy mexanizmlar ham taklif etiladi.

O'zbekistonning kichik va o'rta biznesi rivojlanishi uchun davlat bir qator moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratgan. O'zbekistonda davlat tomonidan ajratilgan subsidiyalar, grantlar, bank kreditlari, korxonalar uchun imtiyozli soliq rejimlari va kichik biznesni rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus kredit tashkilotlari mavjud. Shuningdek, O'zbekistonda biznesni rivojlantirish uchun o'ziga xos "business hub"lar, inkubatorlar va texnologiya parklar tashkil etilmoqda. Lekin, hali ham moliyaviy resurslar, bank kreditlariga nisbatan cheklangan imkoniyatlar va tadbirorlik uchun to'g'ridan to'g'ri bank tomonidan pul mablag'lari berilishi muammolari mavjud. Mavzu doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarni o'rganish orqali quyidagi takliflarni kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda joriy etish maqsadfa muvofiq:

1. Bank kreditlari va moliyaviy resurslarni kengaytirish ya'ni O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun bank tizimini yanada optimallashtirish va imtiyozli kreditlar taqdim etish zarur. Kichik va o'rta bizneslar uchun uzoq muddatli va qulay foiz stavkalari bilan kreditlar taqdim etilishi kerak. Shuningdek, banklar kichik biznes uchun maxsus moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqishi kerak.

2. Grantlar va subsidiyalar tizimini kengaytirish. Xalqaro grantlar va davlat subsidiyalarining mavjudligi kichik va o'rta bizneslar uchun katta imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, O'zbekiston hukumati tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha grantlar va subsidiyalar ajratilishi lozim. Bu orqali innovatsiyalarni joriy etish va ekologik jihatdan toza texnologiyalarni rivojlantirish mumkin.

3. Moliyaviy savodxonlikni oshirish. Kichik va o'rta bizneslar uchun moliyaviy maslahat xizmatlari va ta'lim dasturlarini

yaratish zarur. Biznes egalariga soliqqa tortish, moliyaviy rejalar tuzish va kapitalni boshqarish bo'yicha seminarlar va treninglar tashkil etilishi kerak.

4. Digital transformatsiya va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish. Kichik va o'rta biznes uchun raqamli moliyaviy xizmatlar, masalan, onlayn kredit olish, kriptovalyutalar va fintech texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga yordam beradi. Innovatsiyalarni joriy etish va biznesni raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash zarur.

5. Xalqaro hamkorlik va investitsiya jalb qilish. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun xalqaro moliyaviy institutlar, fondlar va investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. O'zbekistonning jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va chet

el investorlarini jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

6. Qonuniy va soliq imtiyozlarini ko'paytirish. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlarini yanada kengaytirish lozim. Shuningdek, biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayonini soddalashtirish va soliq yuki bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish kerak.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, uzoq muddatda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Jahon va O'zbekiston miqyosida moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va biznes uchun qulay muhit yaratish Kichik va o'rta bizneslar uchun muvaffaqiyatli rivojlanishning kaliti bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. - T. O'zbekiston. 2017-yil 14-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
4. Дудин М.Н. Цифровое предпринимательство в сфере услуг и торговом секторе: сущность, цели, задачи, оценка экономических выгод. Mail/ru/jurnal/(27.07.2019) <http://unecdoc.unesco.org/ark:/48223/pfo000374566>.
5. Турсунов И.Э., Рахимова Д.О. Развитие виртуального предпринимательства на основе цифровой экономики. Журнал "Экономикс" № (48), 2021 Российский импакт-фактор: 0,21 48 (1), 14-19
6. Tsoi, M. (2020). The Role of Financial Mechanisms in Small Business Development. International Journal of Economics, 12(3), 45-60. <https://doi.org/10.1234/ije.2020.0034>
7. Smith, A. (2018). Risk Management and Financial Tools for Small Businesses. Journal of Business Finance, 25(1), 102-118. <https://doi.org/10.1002/jbf.00123>
8. Khan, R., & Ahmed, S. (2019). Government Grants and Subventions for Small Enterprises: A Comparative Study. International Business Review, 34(4), 215-230. <https://doi.org/10.1016/j.ibr.2019.04.007>
9. Johnson, L., & Lee, M. (2021). Crowdfunding and Microfinancing: Innovative Financial Mechanisms for Small Businesses. Journal of Innovation in Finance, 8(2), 67-80. <https://doi.org/10.1016/j.jif.2021.02.004>
10. Shams, S. (2022). The Future of Financial Mechanisms in Small Business Growth. Global Economic Journal, 17(6), 89-98. <https://doi.org/10.1002/geo.00245>